

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA  
MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**N. L. Xodjayeva**

ADU “San’atshunoslik” fakulteti “Musiqa ta’limi” kafedrasи o‘qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

O‘zbek xalq musiqasi vositasida maktabgacha yoshdagи bolalarни ma’naviy-ahloqiy tarbiyani shakllantirish uslublari.

**Kalit so‘zlar:** kuy, oxang, xotira, musiqa san’ati, cholg‘u asbobi, inson ruhiyati, tovushlar, obrazlar, ta’lim tarbiya.

**ABSTRACT**

Methods of formation of spiritual and moral education of preschool children by means of Uzbek folk music

**Key words:** melody, melody, memory, musical art, musical instrument, human spirit, sounds, images, education.

Millatning kelajagi hisoblangan yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib voyaga yetkazishi, ularni ma’lum tarbiyasi, ma’naviy kamoloti masalasini davlat darajasiga ko’tarilishi bugungi kunda tarbiya murabbiylari oldida turgan dolzarb vazifadir. Ma’lumki 1997 yil 26 sentyabrda vazirlar mahkamasi bolalar bog‘chalarining bosqichma-bosqich davlat tasarufiga o‘tkazish haqida qaror qabul qilinib unda O‘zbekistonning kelajagini ko‘radigan yosh barkamol avlodni tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratish, o‘qishga o‘rgatish ularning o‘z imkoniyatlarini anglashga, bilim olishga, hunar o‘rganishiga ko‘mak berish nazarda tutilgan.

Shunday ekan yosh avlodni tarbiyalash, madaniyatli qilib o‘stirish tarixiy meroslarimizni asray olishga o‘rgatish, avvalo bolalar bog‘chasining tarbiyachi murabbiylariga bog‘liq. Bolalarni atrof muhit bilan tanishtirish va so‘z orqali borliqni bilib olishga, tabiatni Vatanni sevishga o‘rgatish bolalar bog‘chasida tarbiya olishdan boshlanadi. Bolalarni so‘z boyligini oshirish, nutqini rivojlantirish xotirasi musiqiy qobiliyatini o‘stirish, o‘tkaziladigan barcha mashg‘ulotlarda, xususan musiqa mashg‘ulotlarida o‘yin, multimedya innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bog‘liq. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim tarbiya berishda asosiy maqsad, ularni jismonan sog‘lom, madaniyatli, tetik, mexnatsevar, vatanparvar, ma’naviy pok odob axloqli insonlar qilib voyaga yetkazish. “Maktabgacha yoshdagи

bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat ta’lablari” asosida ishlab chiqilgan “Bolajon” dasturida ilk yoshdan olti-yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni jismoniy, ijtimoiy - hissiy, nota o‘qish va savodga tayyorlash, aqliy rivojlantirish bo‘yicha, pedagogik vazifalar asosida har bir yosh guruh bolalari o‘quv yili ohiriga kelib egallashlari lozim bo‘lgan malaka va bilimlarining zaruriy hajmi berilgan. YOsh bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli vositalar, hamda musiqa mashg‘ulotlari tadbirlar, ertaliklar orqali amalga oshiriladi. Musiqa mashg‘ulotlari, bayram ertaliklari, innovatsion texnologiya, multimedya, elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, slaydlardan foydalanib, bog‘cha bolalarini nutq madaniyati, dunyoqarashini shakllantiradi. Atrof muhitni to‘g‘ri anglashda esa, o‘zlarini o‘rab turgan narsalarni, yuz berayotgan hodisalar, kuy va qo‘schiqlarni, raqslarni xarakatlarini bajarishga qiziqadilar va mehnatga layoqatlik jihatdan yetuk bo‘lishga intiladilar. Ulug‘ alloma Abu Nasr Farobiy “Har bir kishi a’lo darajada tarbiya olmog‘i kerak va chuqur bilimga ega bo‘lmog‘i lozim. Atrof muhitdan barcha narsa va hodisalarni bilmog‘i uchun, musiqa va tarbiya vositalari orqali bolalarga ilk yoshdan eng yaxshi fazilatlarni uyg‘otmoq lozim” – aytgan edi. “aql haqida risola” “Kitobul ahloq” va boshqa bir qancha asarlarda. Bog‘cha yoshidan berilgan ta’lim tarbiya, to‘g‘ri olib borilishi kerak, chunki bog‘cha yoshidan olib borilgan bilimlar, musiqiy mashg‘ulotlar, didaktik o‘yinlar, topishmoqlar, kuy va qo‘schiqlar, ertaklar, o‘zaro muomala madaniyatlari bola qalbida butun umr muhrlanib qoladi. Bolalarni nutqini o‘stirish, musiqiy qobiliyatini, xotirasini rivojlantirishga turli o‘yinlar, mashg‘ulotlar, raqs xarakatlari ertaklarni, o‘zbek xalq kuy va ashullalari muhim ahamiyatga ega. Bolalarni kamolot sari yetaklashda, tarbiyaning ko‘plab omillari qator, musiqa tarbiyasini ahamiyati katta. Bola musiqa bilan ilk bor oilada, ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan madad topadi, ma’naviy ozuqa oladi. Zero, kuy va oxang ta’sirida ezgulikka intilish, go‘zallikni asrash, vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat his tuyg‘ulari astasekin rivojlanib boradi. Oilada, onasi bag‘rida bola hali yurishni, so‘zlashishni bilmay turib, musiqani eshitib orom oladi, sho‘x musiqani eshitib turli ko‘l harakatlarni bajarib, musiqaga munosabatini bildiradi. Onasidan alla eshitgan bola esa, odobli, mehribon, mehnatsevar, xalol inson bo‘lib voyaga yetadi. Yaxshi, mayin, chiroyli musiqa bola miyasini, nerv tuzilishini rivojlanishiga ko‘mak beradi. Ilk musiqani bolalar ongida shakllantirish va musiqaga qiziqishini uyg‘otish albatta bog‘chadan boshlanadi. Ayniqsa o‘zbek xalq kuy va qo‘schiqlarini bolalarga o‘rgatish, ularda qiziqishini uyg‘otadi, chunki o‘zbek xalq musiqasi bilan bolalar ona allasi, televideniya, radio, mahallalarda bo‘ladigan to‘ylar, beshik to‘ylar orqali tanish bo‘ladilar, bu esa ularni qalbini quvonch va zavqqa to‘ldiradi.

Bolalar bog‘chasida o‘tkaziladigan musiqa mashg‘ulotlarida ham, bola musiqani tinglab idrok qiladi va undan zavq, ma’naviy ozuqa oladi. Mashg‘ulotlarda bolalarni

qo'shiq kuylash raqs yelementlarini bajarish, chapak chalish va cholg'u asboblarida jo'r bo'lishi ularga yanada qiziqish uyg'otadi, chunki bolalar serxarakat o'yinga, erkalatishga shirin so'zga moyil bo'ladilar. Raqs xarakatlari orqali bola tez qabul qiladi. Milliy xalq qo'shiqlaridan "Kovushim", "CHamanda gul", "Oftob chiqdi olamga", "Boychechak", "Non yopganda mening oyim", "Oyijon boshginam og'ridiyo" kabi qo'shiqlar bolalarda milliy urf odatlarimizga hurmat tuyg'usini shakllantiradi. Bolalarni o'zbek xalq cholg'u asboblarida chalishga o'rgatish ularni fikr doirasini, notalarni o'rgatib, cholg'ularni chalish usullari bilan tanishtirish, ritm tuyg'usi, jamoada chalish odatlari shakllanadi. O'zbek xalq musiqasiga milliy cholg'u sozlariga qiziqishi va mehr muxabbat uyg'onadi. Ular musiqani sirli olamini kashf etib cholg'u sozlar ovozlarini turli ohangdosh kuy va musiqa bir-biridan farq qila boshlaydilar. Musiqa jo'rligida qo'shiq ayta olish, raqsga tusha olish, raqsga tushganda harakatlarni moslashtira olish, musiqani tinglab tahlil qilish kabi bilimlariga ega bo'la boshlaydilar. Bundan tashqari bola bog'chasida o'tkaziladigan musiqiy bayram ertaliklari, ularga kuchli ta'sir etib, bayramlarning tarbiyaviy kuchi o'z g'oyasiga ega bo'lib xotiralar qoldiradi, bolalar dunyoqarashini badiiy va ma'naviy tomondan boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda bolalar bog'chalarida milliy ruhda shakllanib, milliy qadriyatlarimiz, urf odatlarimizni qadrlaydigan odobli, aqli, jamiyat oldida mas'uliyatni his qiladigan insonlar bilan voyaga yetadilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. 2000 y.
2. Apraksina O. Metodika muzikalnogo vospitaniya shkole Moskva , 2003.
3. Apraksina.O.A. Metodika muzikalnogo vospitaniya shkole. (Uchebnoe posobie dlya ped. institutov po spes. 2119 «Muziki penie») - 3. M.: Prosveshchenie, 2003-222s.
4. Zimina A.N.Osnovы muzыkalnogo vospitaniya razvitiya. M. 2000
5. Metodika prepodavaniya muzыkalnyx disiplin: Sb. statey. -T.: O'qituvchi. 2009. -95 s.
6. Muzikalnaya psixologiya: Uchebnoe posobie. / avtor sost. Kadirov R.G., T.: Muzika, 2005. -80 s.
7. Muzikalnoe vospitanie shkole. Vyp.19.: Sb. statey. / Sostav. O.Apraksina. M.: Muzika, 2007. -110 s.
8. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi O'quv metodik qo'llanma 2009 UzDK